XALQARO NORDIK UNIVERSITETI

IZLANUVCHILAR ILMIY FAOLIYATI CHORAKLIK MONITORINGI NATIJALARI TO‘G‘RISIDA UMUMLASHTIRILGAN HISOBOT (2024–2026)

2026/2027 o‘quv yili

Toshkent – 2026

UMUMIY MA’LUMOT

1.1. Mazkur hisobotda Xalqaro Nordik universiteti (keyingi o‘rinlarda – Universitet) tayanch doktorantlari, doktorantlari, stajyor-tadqiqotchilari va mustaqil izlanuvchilari ilmiy faoliyatining 2024-yil 1-choragidan 2026-yil 2-choragigacha o‘tkazilgan choraklik monitoringi natijalari umumlashtirilgan holda keltirilgan.

1.2. Monitoring Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 22-maydagi 304-son qarori bilan tasdiqlangan “Oliy ta’limdan keyingi ta’lim to‘g‘risida”gi Nizom va Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 12-iyundagi 362-son qarori asosida o‘tkaziladi. Har chorakda rektor buyrug‘i bilan monitoring komissiyasi tuziladi, izlanuvchilar hisobotlari kafedralarda va komissiyada tinglanadi, natijalar Universitet Kengashida ko‘rib chiqiladi.

1.3. Hisobot shaxsga oid ma’lumotlarsiz tayyorlangan: unda faqat sonlar keltirilgan. Izlanuvchilar familiyasi ko‘rsatilgan Kengash ko‘chirmalari, komissiya bayonnomalari va rektor buyruqlari Universitet repozitoriyining “Doktorantura: monitoring va hisobotlar” bo‘limida yopiq material sifatida saqlanadi.

MONITORING NATIJALARI

2.1. Choraklar kesimida monitoring natijalari va Kengash qarorlari 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval.

Choraklik monitoring natijalari (nafar)

Chorak	Rektor buyrug‘i	Universitet Kengashi	Qamrov	Qoniqarli	Shartli o‘tgan	Qat’iy ogohlantirish	Hayfsan	Safdan chiqarilgan
2024, 1	b-017, 26.03.2024	05.04.2024, navbatdan tashqari 7-son	28	25	–	3	–	1
2024, 2	b-043, 05.06.2024	13.09.2024, navbatdan tashqari 2-son	28	22	–	2	2	–
2024, 3	b-071, 15.10.2024	26.11.2024, 4-son	40	39	–	–	3	–
2024, 4	b-083, 03.12.2024	26.12.2024, navbatdan tashqari 6-son	40	40	–	–	1	1
2025, 1	b-019, 27.03.2025	29.04.2025, 5-son	56	32	6	8	6	2
2025, 2	b-037, 16.06.2025	30.06.2025, 7-son	57	25	11	11	5	2
2025, 3	b-052, 25.09.2025	30.10.2025, navbatdan tashqari 10-son	56	38	4	5	7	1
2025, 4	b-075, 25.12.2025	30.01.2026, 1-son	52	24	17	3	2	6
2026, 1	b-020, 06.03.2026	30.04.2026, 4-son	58	30	20	6	–	1
2026, 2	b-045, 15.06.2026	30.06.2026, 6-son	60	34	7	11	5	1
Jami				309	65	49	31	15

Manba: Universitet Kengashi bayonnomalaridan ko‘chirmalar. “Qamrov” – Kengashda e’lon qilingan, kafedralarda monitoringdan o‘tgan tadqiqotchilar soni. Kengash qarorlari ro‘yxatlariga yangi qabul qilinganlar va avvalgi chorakda qatnashmaganlar ham kiritilgani sababli qatorlar yig‘indisi qamrovga to‘liq teng kelmasligi mumkin. “–” – Kengash qarorida bunday chora qo‘llanilmagan. 2026-yil 3-chorak monitoringi rektorning 2026-yil 11-sentabrdagi b-063-son buyrug‘i asosida o‘tkazildi, natijalari Kengash ko‘chirmasi rasmiylashtirilgach hisobotga qo‘shiladi.

2.2. Monitoring qamrovi 2024-yildagi 28 nafardan 2026-yil 2-choragida 60 nafarga yetdi. 2025-yildan boshlab “shartli o‘tgan” toifasi kiritildi: bu izlanuvchilarga shaxsiy ish rejasidagi kamchiliklarni 1–3 oy ichida bartaraf etish vazifasi belgilanadi.

2.3. Monitoringda qatnashmagan yoki shaxsiy ish rejasidan ortda qolgan izlanuvchilarga nisbatan bosqichma-bosqich choralar qo‘llaniladi: qat’iy ogohlantirish, hayfsan, ilmiy rahbarga va kafedraga topshiriq, stipendiyani to‘xtatish, surunkali (2–3 marta va undan ortiq) qatnashmaganlarni safdan chiqarish. Hisobot davrida 15 nafar tadqiqotchi Kengash qarori bilan safdan chiqarilgan.

NATIJALAR ASOSIDA BELGILANGAN CHORALAR

3.1. Kengash qarorlari bilan quyidagi choralar belgilangan:

– barcha kafedralarda haftaning bir kuni metod kuni etib belgilanib, tadqiqotchilar uchun ilmiy seminarlar muntazam o‘tkaziladi,

– ilmiy rahbarlar tadqiqotchi bilan uzluksiz ishlab, belgilangan muddatlarda Ilmiy-innovatsion tadqiqotlar departamentiga axborot beradi,

– izlanuvchilar daraja.ilmiy.uz platformasiga ma’lumotlarni o‘z vaqtida kiritadi va har chorakda departamentga hisobot topshiradi,

– dissertatsiyasi tayyor bo‘lgan tadqiqotchilar kafedra va ilmiy seminar muhokamasiga qo‘yiladi,

– mustaqil izlanuvchilikka qabulda talabgorlarning chop etilgan ishlari ilmiy yo‘nalishga mosligi tekshiriladi.

3.2. Monitoring natijalari va ushbu hisobot har chorakda yangilanib, Universitet repozitoriyida va “XNU tadqiqotchilari” Telegram kanalida (t.me/xnuilmiy) e’lon qilinadi.

Ilmiy-innovatsion tadqiqotlar departamenti boshlig‘i **F. Irisqulov**